



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Azilova Zuhra Gulmon qizi

*Nukus davlat pedagogika instituti, O'zbek adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori
azilovazuhra@gmail.com +998944502494*

RUBOIYLAR TARJIMASIDA MAZMUN, VAZN VA OHANG MUAMMOSI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Navoiyning ruboiylari qoraqalpoqcha tarjimasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tarjimonning shoir estetik olamini qayta yaratish mahorati, soʻz tanlash mahorati, ruboiy janri talablari, uning tarjimada qayta yaratilishi kabi masalalar oʻrganilgan.

Kalit soʻzlar: ruboiy, vazn, asliyat, modifikatsiya, aruz vazni, barmoq vazni, boʻgʻin.

Азилова Зухра Гулман кизи

**Кафедра литературы узбекского преподаватель Нукусский государственный
педагогический институт, доктор философских наук
azilovazuhra@gmail.com +998944502494**

ПРОБЛЕМА СОДЕРЖАНИЯ, РАЗМЕРА И ТОНАЛЬНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ РУБАИ

Аннотация: В данной статье будет проведен сравнительный анализ Рубаи Навои с каракалпакским переводом. Исследовались такие вопросы, как умение переводчика воссоздавать эстетический мир поэта, мастерство подбора слов, требования жанра рубаи, его воссоздание в переводе.

Ключевые слова: рубай, размера, оригинал, модификация, размера аруз, размера бармак, слог

Azilova Zuhra Gulmon kizi
Nukus State Pedagogical Institute, teacher of the Department of Uzbek Literature, Doctor of philosophy in philology

PROBLEMS OF MEANING, METER, AND MELODY IN THE TRANSLATION OF RUBAI

Abstract: This article provides a comparative analysis of Alisher Navoi's rubais and their translations into Karakalpak. Particular attention is given to the translator's ability to reconstruct the poet's aesthetic worldview, the mastery of lexical choice, and the challenges of preserving the structural and stylistic requirements of the rubai genre. The study also explores the adaptation of classical meters – such as aruz and syllabic systems – in translation and the extent to which they convey the original poetic harmony.

Key words: rubai, meter, original, modification, aruz meter, syllabic meter, syllable.

Kirish (Introduction). Mumtoz lirik janrlar va ularning o'ziga xosliklari yuzasidan o'zbek adabiyotshunosligida bir qancha monografik tadqiqotlar yaratilgan holda ularda muayyan janr spetsifikasi, vazn o'lchovlari xususida ilmiy xulosalar berilgan. Sharq adabiyotida keng ommalashgan g'azal, ruboiy, qasida, tuyuq, qit'a, fard kabi janrlar yuzasidan ilmiy xulosalar mavjud. Bu kabi kichik lirik janr namunalarida ularning matn strukturasini tashkil etuvchi vazn, ritm va ohang, obrazli tafakkur hamda ularni namoyon etuvchi adabiy unsurlar, bir tomondan she'riy matnning janr sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan unga murakkablik yuklovchi omil sanaladi. Ko'rinadiki, mumtoz lirik janrlar nihoyatda nozik vazn o'lchovi, kompozitsion qurilishiga ega bo'lib, uni ikkinchi tilga tarjimaga qilishda butun mukammalligi va murakkabligi bilan qayta jilolantirish katta mahorat talab qiladi. Shu boisdan ham "Jahon adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodini o'rganish qariyb olti yuz yillik tarixga ega bo'lib, bu davr mobaynida Sharq va G'arb

mamlakatlarida navoiyshunoslikka doir ko‘plab durdona asarlar yaratildi hamda ulug‘ shoir va mutafakkir ilmiy-ijodiy merosining jahon madaniyati tarixidagi o‘rni yuqori baholandi” [4;134]. Ana shunday izlanishlar sirasida Navoiy ijodining qoraqalpoq tiliga tarjimalari hamda uning tadqiqi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘tgan asrning 80-yillarigacha bo‘lgan davrlarda, asosan, Navoiy “Xamsa”sidan parchalar tarjima qilingan bo‘lsa, keyinchalik bir qator shoirlar kichik lirik janrlarida tajribalarini sinab ko‘rdilar. Xususan, Navoiy ruboiylari tarjimalari yaratildiki, ularda tarjimonlar asliyat shaklini berishda vazn o‘lchovlari murakkabliklariga duch kelgan holda mazkur masalada janrlararo modifikatsiya qilish yo‘lini tanlaydilar. Ta’kidlash kerakki, “Modifikatsiya tushunchasi faqat adabiy-badiiy jarayonlarga emas, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy, psixologik, iqtisodiy, siyosiy hayotiga ham xos hodisadir. Ma’lum bir mezonlar, qonuniyatlarning boshqa turlar bilan muayyan chegaralarda birlashishi, singib ketishi, o‘zgarishlarga uchrashini anglatadi. Lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra, modifikatsiya – ko‘rinish, turlanish, shaklini o‘zgartirish, o‘zgargan shakl, holat degan ma’noni bildiradi” [2;13].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. (Literature review). Alisher Navoiy ruboiylari S.Ibragimov tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, u “Alysher Nawayi “G‘azeller” [1] nomi ostida kitob holida nashrdan chiqqan. Biroq, mazkur tarjimalar ilmiy, qiyosiy tahlil qilinmagan. Bundan tashqari, Navoiy asarlari “Qoraqalpoq adabiyoti” gazetasi “Mangi bulaqlar” sahifasida 2020-yil №2 (110) sonida “g‘azeller, rubayilar, qit’alar, hikmetler” va 2022-yil №1-2 (133-134) sonida “G‘azeller”i S.Ibragimov tarjimalarida berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Kichik lirik janrlar hisoblangan ruboiylarni qiyosiy tahlil qilishda B.Qosimov, N.Jumaxo‘ja, Q.Orazimbetov, G.Xalliyeva, K.Tashanov singari tarjimashunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi. Navoiyning ruboiylarining o‘zbekchadan qoraqalpoq tiliga tarjima variantlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Navoiy ruboiylari dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilingan va bu ish muntazam davom etyapti. Xususan, L.Penkovski, N.Grebnevlar tomonidan rus tiliga tarjima qilingan bo‘lsa, I.Yusupov,

S.Ibragimovlar shoir ruboiylarini qoraqalpoq tiliga o'girdilar. Quyida biz S.Ibragimovning tarjimini asliyat bilan qiyosiy tahlilga tortdik. Tarjimon mashhur "G'urbatda g'arib" deb boshlanuvchi ruboiyni tarjima qilishda aruz vazni qoidalaridan chekingan holda o'n bir bo'ginli barmoq o'lchovidagi to'rtlik shaklida tarjima qilgan:

Ġarip shadlı bolmas ġayrı ellerde –
Jat el óz elińdey mehir bermeydi.
Qoysañ qızıl ġúldı altın qapeste –
Búlbilge tikendey lázzet bermeydi. [1;21]

Ta'kidlash kerakki, qoraqalpoq poeziyasida aruz vazni deyarli uchramaydi, aksariyat, barmoq o'lchoviga asoslanadi. Barmoq vaznida esa misralardagi bo'g'inlar soni tengligiga tayanadi. Bu holatni adabiyotshunos olim, professor Q.Orazimbetov ham alohida qayd etadi: "Al, barmaq ólsheminiń tiykarǵı kriteriyası qosıq bántindegi qatarlarda buwın sanlarınıń teń bolıwı" [6;381].

S.Ibragimov tarjimasida asliyatdagi mazmun aks etgan bo'lsa-da, qofiya va radif saqlanmaydi. *Ellerde – qapeste* so'zlaridagi *de-te* bir xil qo'shimchalar – "orin sepliginiń jalǵawı" bo'lganligi sababli qofiyadosh emas. Professor Q.Orazimbetov ta'kidlaganidek: "Hár qıylı morfologiyalıq qurılısqa iye qosımtalar bir-biri menen uyqasadı". Asliyatda ruboiyda kalom-i jomi' san'atidan foydalaniladi. Kalom-i jomi' – o'git, hikmat va shikoyat bilan zeb berib yozilgan she'r. Mazkur ruboiy ham hikmat asosida yozilgan bo'lib, tarjimada ham mazmunan kalom-i jomi' san'ati saqlangan. Bandan tashqari, asliyatda ruboiyda tamsil san'ati yaxlit bir she'r doirasida qo'llanilgan. Tamsil arabcha so'z bo'lib, "misol keltirish", "dalillash" degan ma'nolarni bildirib, she'rning birinchi misrasida keltirilgan fikrga ikkinchi misrada hayotiy voqelikni misol qilib keltirish san'atidir. Yevropa adabiyotida bu psixologizm deyiladi. Ruboiyning keyingi ikki satrida psixologizm asosiga qurilgan go'zal qiyos keltiriladi. Bulbulga oltin qafas yasab, ichiga qizil gul ko'kartirilib qo'yilsa ham, u tikanlar orasidagi o'z inidek oshiyon bo'la olmasligi tasvirlanadi. Tarjimada ham tamsil san'ati o'z aksini topgan.

Navoiyning "Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz" deb boshlanuvchi ruboiysining 1-, 2-, 4-misralari hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ahtam

uchinchi misrasi esa hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar vaznida yozilgan. S.Ibragimov tarjimasida esa 1-, 2- va 4-misralar 10 bo‘g‘in, 3-misra 11 bo‘g‘indan tashkil topgan bo‘lib, barmoq vazniga solingan:

Asliyatda:

Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmak ondin ortuq bo‘lmas,
Ondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz [5;68].

Tarjimada:

Jannan kóp súyermen, áziz ómirim,
Biyhesap súyermen, áziz ómirim,
Neshik ulíg bolsa insannıń mehri –
Onnan kóp suyermen, áziz ómirim. (1;22).

Asliyatda ruboiy qofiya va radif asosiga qurilgan. Navoiy ruboiydek kichik janrda olti so‘zdan iborat radifni qo‘llagan. Bu she‘riyatda kamdan-kam uchraydigan hodisa. “Intonatsion butunlik va musiqiy ohangdorlikni ta’minlovchi radifning teng yarmi “ey umri aziz” undalmasidan iborat bo‘lishi esa tavsif obyekti – umrga, insonga nisbatan ehtirosli, umidvor murojaat hamda ilinj, e’tiqod mavzularini kuchaytiradi. San’atkorlik shunda ham ko‘rinadiki, shoir qofiyalanuvchi misralar boshidagi birgina so‘zni o‘zgartiradi, xalos” [3;98].

Asliyatda tadrij vositasida badiiy mazmun rivojlanaveradi: hayotga, insonga muhabbat kuchayib boradi. Misralar boshida takrorlanuvchi so‘zlar ham oddiy emas: “jondin”, “sondin”, “ondin”. Bu so‘zlar va radif tarse’ san’atini hosil qilgan. Tarjimada bu san’at to‘liq saqlanmagan bo‘lib, jannan – onnan qofiyasi, uch so‘zdan iborat: “suyermen, áziz ómirim” radifi qo‘llaniladi. **Birinchi misrada** lirik qahramon aziz umrni yoki yorini jondan ham ortiq sevishini anglashimiz mumkin. **Tarjimada** faqat aziz umrni sevishi aytiladi. **Ikkinchi misrada** dunyoda miqdorni ko‘rsatuvchi qancha son bo‘lsa, hayotni, ma’shuqani undan ham ko‘p sevajagini ifodalasa, **tarjimadan** birgina umrni sevish ma’nosini ilg‘ab olishimiz mumkin. Shoir faqat hayotga bo‘lgan muhabbati bilan bir qatorda, yorga bo‘lgan muhabbati ham undan ortiqqligini

tasvirlagan. “Sondin” va “biyhesap” – “esapsiz, sansiz, kóp, esap-sanı joq” [7;285] soʻzlarining maʼnolari bir-biriga toʻgʻri kelsa ham bu soʻzlar qofiyadosh boʻlolmaydi. Shoir umrga boʻlgan muhabbati oʻlchovsiz darajadaligini tushunadi va shunday xulosalaydi: “Eng oliy darajada biror narsani sevish mumkin boʻlsa, men seni undan ham ortiq darajada sevaman”. Tarjimada ham xuddi shunday mazmun aks etgan.

Oʻzbek – qoraqalpoq adabiyoti badiiy tarjimachiligini maxsus tadqiq qilgan olim K.Tashanov shunday taʼkidlaydiki: “asliyat tilidagi boʻyoqdor soʻzlar tarjimada qayta tiklanmas va tarjima tilining boʻyoqdorligidan, rang-barangligidan butun imkoniyatlari darajasida foydalanilmas ekan, tarjima oddiy, joʻngina asarga aylanib qoladi va oʻzga xalqning maʼnaviy mulki boʻlolmaydi. Kitobxon qalbiga yetib bormaydi. Chunki badiiy asarda tasvirlanayotgan va yoritilayotgan hayot haqiqati uning til usullari qobigʻiga oʻralgan boʻlib, vaziyatlar, qahramonlar qiyofasi, holati va xatti-harakatlarining ifodasi turli-tuman funksional munosabatlarga joylashtirilib, ichki bogʻliqlikda biriktirilgan boʻladi. Bularning hammasi badiiy asar kompozitsiyasi ichki tuzilishi bilan muvofiqlikda soʻz va jumlar, ifodalarning qoʻllanilishi hamda bogʻlanish usullari natijasida joʻshqin taʼsirda namoyon boʻladi. Biroq badiiy asardagi til usullari hamisha muallif munosabatiga, uning izmiga bogʻliq boʻladiki, mutarjim tarjima tilining til usullarida emotsional-ekspressiv maʼnodorlikni yozuvchining soʻz va ifodalarga munosabatini his qilgan holda qayta tiklashi lozim” [9;103].

Navoiyning “Kerak” radifli ruboiysi ham ikki vaznli boʻlib, 1-misrasi hazaji musammani axrabi maqbuza makfufi ajabb, qolganlari hazaji musammani axrabi makfufi ajabb vaznida bitilgan:

Zohid, senga – hur-u, manga – jonona kerak,
Jannat – sanga boʻlsun, manga – mayxona kerak.
Mayxona aro soqiy-u paymona kerak,
Paymona necha boʻlsa toʻla, yona kerak. (5.72).

Tarjimada barcha misralar 13 boʻgʻindan tashkil topgan:

Záhid, saǵan **húr** kerek, maǵan **janan** kerek,
Jánnet saǵan bolsın, maǵan **mayxana** kerek.
Mayxana ishinde **saqıy** hám **gúze** kerek,

Neshe gúze bolsa barlıgı tolı kerek. [1.22]

Ruboiy tasavvufiy yo‘nalishda bitilgan bo‘lib, mutaassiblik, tarkidunyochilik va quruq toatni rad etadi. Ilohiy va majoziy ishqni tarannum qiluvchi “janona”, “mayxona”, “paymona” so‘zlariga alohida urg‘u berib, qofiya sifatida keltiradi. S.Ibragimov tarjimasida ham mazkur so‘zlar bor, lekin “jonona” – “janan” tarzida keltirilganligi bois ohangdoshlik ta‘minlanmagan. Uchinchi misradagi “paymona” so‘zi “gúze” deb tarjima qilingan. Ma‘lumki, “Gúze – saz ılaydan qumbızda kúydirilip islengen, sut, ayran, qatıq hám tağı basqa nárselerdi salatuğın, quyıp qoyatuğın hám de shıgırğa paydalanatuğın ıdı” [8;32]. Paymona – “qadah, may piyolasi” degani. Navoiy dostonlaridagi tarjimasida “qadah” so‘zi o‘rnida “kesa” so‘zidan foydalaniladi. Agar “kesa” deb tarjimalansa, qofiya yuzaga chiqmaydi. Shuning uchun, tarjimada “paymona” so‘zining o‘zini keltirib, tagiga izohi berib ketilsa, tasavvufiy istiloh saqlanib, qofiya ham keltirilgan bo‘lar edi. Asliyatda foydalanilgan tanosub san‘ati tarjimada ham saqlangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Badiiy tarjima g‘ayot mas‘uliyatli va sermashaqqat jarayon bo‘lib, tarjimondan katta ijodiy mehnatni talab qiladi. Ayniqsa, Navoiydek daho ijodkorning asarlarini boshqa tilga o‘girish ancha murakkablik kasb etadi. Mumtoz adabiyotdagi har bir janrning maxsus vaznlarda yaratilishi, shu nuqtayi nazardan ham ular boshqa janrlardan farqlanishi, har bir janrda mazmun o‘ziga mos bo‘lgan shaklda namoyon bo‘lishini hisobga olsak kichik lirik janrlar tarjimasida qofiya va radifning berilishi muhim ahamiyatga ega. Zotan, qofiya va radif bir-biri bilan chambarchas bog‘liq unsurlardir. S.Ibragimov tarjimalarida Navoiy qo‘llagan aksariyat she‘riy san‘atlar qayta yaratilgan. Xususan, g‘azallar mazmuni, g‘oyasida asliyatdagidek yuksak did, badiiy tafakkur his qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Álisher Nawayı. Ğázzeller. Nókis: “Qaraqalpaqstan” baspası, 2020-jıl, 80 bet.
2. Mamiraliyev Q. Istiqloq davri o‘zbek she‘riyatida janrlar modifikatsiyasi. Filol.fan.fals.dokt... diss.avtoref. – Toshkent, 2020.
3. Qosimov B., N.Jumaxo‘ja. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003, 398 bet.

4. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020, 160 bet.
5. Навоий. А. Қитъалар, фардлар, рубоийлар, туюқлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. 100 бет.
6. Оразымбетов Қ. Таңламалы шығармалар топламы. 1-том. – Нөкис: Билим, 2018. 381 бет.
7. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 1-том. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1982. 404 бет.
8. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 2-том. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1984. 387 бет.
9. Ташанов К. Миллий характер ва бадиий таржима. – Тошкент: Фан ва технология нашриёти, 2015, 140 бет.